



YUKLAMA VAZIFASIDAGI FUNKSIONAL BIRLIKLARNING QIYOSIY TAVSIFI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18447613>

Abdullaeva Nilufar Sultanbaevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, katta o'qituvchi

nilufarabdullayeva.uz@gmail.com

+998(99)7211233

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek va turk tillaridagi yuklama vazifasida keluvchi birliklar qiyosiy jihatdan o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ularning ma'no va vazifalari, gap tarkibidagi o'rni hamda uslubiy xususiyatlari tahlil qilindi. Yuklamalarning gap mazmuniga ta'siri, ko'p ma'noliligi va turli vazifalarda qo'llanishi aniqlandi.*

Ushbu tadqiqot o'zbek va turk tillarining umumiy va farqli tomonlarini aniqlashga, shuningdek, turkiy tillar qiyosiy grammatikasini yanada boyitishga xizmat qiladi. Maqolada keltirilgan xulosalar og'zaki nutq, badiiy va ommabop matnlardan olingan misollar asosida yoritildi.

Kalit so'zlar: *yuklama birliklar, o'zbek va turk tillari, yuklamalar, yordamchi so'zlar, semantika, funksional birliklar, qiyosiy tahlil, gap tuzilishi.*

Аннотация: *В данной статье проводится сравнительное исследование единиц, выполняющих функцию предлогов в узбекском и турецком языках. В ходе исследования анализируются их значения и функции, место в структуре предложения и стилистические особенности. Определено влияние предлогов на содержание предложения, их многозначность и использование в различных задачах.*

Данное исследование служит для выявления общих и различных аспектов узбекского и турецкого языков, а также для дальнейшего обогащения сравнительной грамматики тюркских языков. Выводы, представленные в статье, иллюстрируются примерами из устной речи, литературных и народных текстов.

Ключевые слова: *предлоги, узбекский и турецкий языки, предлоги, вспомогательные слова, семантика, функциональные единицы, сравнительный анализ, структура предложения*

Abstract. *This article comparatively studies the units that act as prepositions in the Uzbek and Turkish languages. In the course of the research, their meanings and functions, place in the sentence structure and stylistic features were analyzed. The impact of prepositions on the content of the sentence, their polysemy and their use in various tasks were determined.*



This study serves to identify the common and different aspects of the Uzbek and Turkish languages, as well as to further enrich the comparative grammar of the Turkic languages. The conclusions presented in the article are illustrated on the basis of examples taken from oral speech, literary and popular texts.

Keywords: *prepositions, Uzbek and Turkish languages, prepositions, auxiliary words, semantics, functional units, comparative analysis, sentence structure*

KIRISH

Nafaqat xorijiy tillar, balki qardosh turkiy tillarni o'rganish va o'rgatish, til vositasida buyuk maqsadlarni amalga oshirish, o'z ona tili va turli xalqlar tillarini chuqur biluvchi barkamol avlodni tarbiyalash, davlat tilimiz bo'lgan o'zbek tilini rivojlantirish, qadr-qimmatini oshirish, uning maqomini, qardosh tillar bilan aloqasini yanada mustahkamlash ijtimoiy-siyosiy yo'nalishda ham dolzarb mavzuga aylandi. Chunki davlat va jamiyat ravnaqi, sog'lom va etuk inson tarbiyasida til hal qiluvchi ahamiyatga ega [1].

Tilshunoslik sohasida tilga qiyosiy yondashuv (ayniqsa, bitta guruhga mansub tillarda) ko'plab lingvistik muammolarni, til bo'yicha hali echimini topmagan bahsli munozaralarni hal qilishga asos yaratadi. Shu nuqtai nazardan, ishda o'zbek va turk tillari grammatikasida muhim bo'g'in bo'lgan yuklamalar tadqiqot ob'ekti sifatida olindi.

Tadqiqotda ilk bor o'zbek va turk tillaridagi yuklamalar semantik-funksional, uslubiy-sinonimik, sintaktik, intonasion va strukturaviy jihatdan umumiylik va xususiylik nuqtai nazaridan tadqiq qilindi. Bunday tadqiqot genetik yaqin tillar uchun xarakterli umumiy va

farqli tomonlarni yuzaga chiqarish, turkiy tillar qiyosiy grammatikasi nazariyasiga kengroq ma'lumot olib kirishga sharoit yaratadi. Gap tarkibida yuklamalarni ko'p qirrali tekshirish qiyosiy turkologiya sohasida, shuningdek, ikkala tilni sinxron planda ilmiy yoritishda dolzarb hisoblanadi. Bundan tashqari, turk va o'zbek tillaridagi yuklamalar hozirgacha qiyosiy o'rganish ob'ekti bo'lmagan. Yuklamalar sintaktik qo'llanilishiga ko'ra funksional o'zgarishga uchrashi, polifunksionalligi, gapning modal tomoniga ta'sir qiluvchi boy semantik tuzilishi bilan ajralib turishi, ularning ko'p ma'noli va ayni paytda, sinonimik, uslubiy kategoriya ekanligi diqqatga sazovordir. Shu sababli ularni o'rganish grammatik vositalar va grammatik semantika nazariyasini rivojlantirishda, ikki til doirasida o'zaro sintaktik-grammatik munosabatlarni belgilashda ma'lum ahamiyatga ega.

Yuklama kategoriyasi turkiy tilshunoslikda qiyosiy aspektida etarli o'rganilmagan til sohasi bo'lib, tilda ularni ma'noviy ajratish va farqlash hamda aniq bir me'yor belgilash hozirga qadar munozaralidir. O'zbek tilshunosligidagi yuklamalarga doir mavjud ilmiy-tadqiqot ishlari, asosan, bir til doirasidagi ba'zi yuklamalarning



semantik tahlilidan iborat bo'lib, ular ko'p qirrali til hodisasi sifatida tadqiq qilinmagan, binobarin, mazkur til birligi, nafaqat bir til doirasida, balki qiyosiy yondashuvda o'zining semantik-funksional, stilistik, sinonimik, sintaktik imkoniyatlari bilan namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Ilmiy ish mavzusini yoritishda bir qancha ilmiy, publisistik va badiiy adabiyotlar, og'zaki nutq (so'zlashuv uslubi) materiallari asos vazifasini o'tadi. Asosiy ilmiy adabiyotlarga U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullaevning "Hozirgi o'zbek adabiy tili", O. Bozorovning "O'zbek tilining yuklama kategoriyasi", B.A.Serebrennikov, N.Z.Gadjievaning "Sravnitel'no-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazikov", A.M.Shcherbakning "Ocherki po sravnitel'noy morfologii tyurkskix yazikov", X.V.Sultanbaevaning "Slujebnie slova v sisteme chastey rechi bashkirskogo yazika", N.Hacieminoğlu ning Türk Dilinde Edatlar, M.Ergin ning Türk Dil Bilgisi, T.Banguoğlu ning Türkçenin Grameri kabi o'zbek, rus va turk tilshunoslarining asarlarini, o'zbek va turk so'zlashuv uslubi namunalarini, badiiy adabiyotlarga, asosan, S.Ahmadning "Jimjitlik" romani, "Tanlangan asarlar", O. Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", "Ko'hna dunyo", Oybekning "Navoiy", M. Ismoilovning "Farg'ona tong otguncha" romanlari, O'.Hoshimov asarlari, R.N.Güntekin romanlari, Ö.Seyfettin hikoyalari, O'zbek hikoyalari antologiyasi kabi asarlarni, publisistik adabiyotlarga o'zbek va turk

tilidagi gazeta va jurnallardan olingan materiallarni misol tariqasida keltirish mumkin. Shuningdek, ilmiy ishning tadqiqot metodlari sifatida qiyosiy, qiyosiy-tipologik metodlar hamda analiz, sintez, tasniflash, tavsiflash usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR

1. Turkiyshunoslikda yuklamalarning o'rganilish darajasi cheklangan bo'lib, ularning morfologik-sintaktik qirralari faqat umumiy jihatdan tekshiriladi; yuklamalar ta'rifida o'xshashlik, tasnifida tafovutlar kuzatiladi. Ushbu kategoriya o'zbek tilida ma'noviy tasnif qilinsa, turk tilida ma'noviy-vazifaviy, sintaktik o'rniga ko'ra ajratiladi hamda semantik xususiyatlari sintaktik, funksional fonda yoritiladi. Mazkur birliklar turk tilida görevli kelimeler sinfi ostida edat va bag'laç tarkibida o'rganiladi.

2. O'zbek tilidagi yuklamalarning turk tilida funksional, ma'noviy va fonetik ekvivalentlari mavjud, biroq ular aksariyat, farqli sintaktik, semantik-funksional tuzilishga ega; fonetik ekvivalent, ya'ni ayni shakliy munosabatdagi yuklamalar ma'noviy-vazifaviy nomutanosiblik fonida korrelyativ munosabatda namoyon bo'ladi.

3. O'zbek tilidagi yuklamalarning ba'zi qo'shimcha semalari turk tilida ayni shu yuklamaning ekvivalenti vositasida emas, boshqa grammatik shakllarda ham ifodalanadi; bir tildagi yuklamaning ayrim qo'shimcha ma'nolari shu yuklamaning ekvivalenti doirasida



ikkinchi tilda kuzatilmaydi yoki ikkala tilda ayni semalar qatoriga ega ekvivalent yuklamalar birlamchi va ma'lum qo'shimcha ma'nolarda bir-biriga mos kelsa, ba'zi ma'nolar boshqa grammatik vositaga yuklatiladi.

4. Har ikkala tilda yuklama vazifasini bajaruvchi birliklarni semantik, sintaktik guruhlantirgan holda tadqiq qilish maqsadga muvofiq. Shu asosda ularning ma'noviy, funksional ekvivalentlarini aniqlash, semantik, grammatik xususiyatlarini keng hajmda tahlil qilish mumkin. Bu tarzda ajratilgan yuklamalar ichida kuchaytiruv va ta'kid ifodalovchi yuklamalar salmog'i va qo'llanilish darajasi yuqoridir.

5. O'zbek va turk tillaridagi yuklamalar ma'nodoshlik asosida o'zaro sinonimik qator hosil qiladi. Sinonimik variantlar sintaktik-stilistik qo'llanilishi, ma'noviy bo'yoqlari jihatdan xususiy belgilarga ega; yuklamalar nutqning turli uslublarida individual, sintaktik, semantik tafovutlarda namoyon bo'ladi, shuningdek, ayrim yuklamalar uslubiy neytral bo'lib, ham og'zaki, ham yozma nutqda qo'llaniladi. SHunga ko'ra, yuklamalarda ham sinonimiyali ham sinonimiyasiz (faqat bitta yuklamaga aloqador) uslubiylik mavjud.

6. Yuklamalarda hissiy-tasviriy bo'yoqni yuzaga chiqarishda intonasiya ajralmas bo'lak bo'lib, ba'zan ohang urg'usi orqali gap maqsadi anglashiladi. Binobarin, yuklamalar ayni sintaktik munosabatda farqli ma'no tovlanishlarini hosil qiladi va bu intonasiya orqali yuzaga chiqadi. Og'zaki nutqda

yuklamalar qo'llanilishi kontekstual xarakterga egaligi sababli, ma'lum vaziyatlarda bu birliklar urg'u oladi yoki biror bo'lakka intonasion urg'u beradi.

7. Qiyoslanayotgan tillarda yuklamalar semantik-funksional, sintaktik, strukturaviy umumiy va xususiy belgilarga ega; bir tildagi yuklamaning semantik doirasi keng bo'lsa, ikkinchi tilda cheklangan, biroq funksional imkoniyati ustun. SHu jihatdan, ayrim yuklamalar polifunksional bo'lib, ikkinchi tilda bir nechta ekvivalentiga ega va ayni paytda, mazmunan boshqa leksik-morfologik birliklarni ifodalashi bilan xarakterlanadi.

8. Yuklamalarda semantik voqelanish sintaktik pozitsiyaga ham bog'liq. Chunki bu birliklar mohiyati boshqa leksik-morfologik shakllar bilan munosabatdagina ochiladi. Ayni bitta yuklama jumlada turli o'rinlarda kelishi va farqli ma'no munosabatlari qurishi mumkin. Bu jarayon, o'z navbatida, stilistik xarakterga ega.

9. Turk tilida o'zbek tilidagi yuklamalarning fonetik analoglari mavjud bo'lib, ular semantik-funksional, sintaktik mushtarak belgilarga ega, ayni paytda xuddi shu munosabatlarda keskin tafovutdadir. Aksariyat, shakliy analog birliklar funksional ziddiyatda namoyon bo'ladi va bog'lovchi kategoriyasi bilan uzviy aloqa hosil qiladi. Shu ma'noda turk tilida fonetik muqobil, biroq zid funksiyali, yuklama va bog'lovchi sifatida ikki tomonlama funksiyalanuvchi, bog'lovchi bo'lsa-da yuklamalik xususiyati mavjud birliklar hamda sof



yuklamalar kuzatiladi. Shuningdek, fonetik ekvivalent birliklar ayni munosabatlarga ko'ra o'zaro 3 ta guruhga ajraladi.

10. Ba'zi yuklamalarning (-mi, hatto) ilmiy manbalarda qayd qilinmagan qo'shimcha semantik-funksional imkoniyatlari mavjud.

MUHOKAMA

Ma'lumki, o'zbek va turk tillarining rivojlanish bosqichlari ular tarkibiga arab hamda fors-tojik tillarining kirib kelishi bilan bog'liq bo'lib, bu hodisa har ikkala tilning o'ziga xos tarzda takomillashuviga yo'l ochdi. Shu jarayon natijasi o'laroq, ularda fonetik-orfoepik umumiylıklar bilan birga, sezilarli tafovutlar yuzaga keldi. Tabiiyki, bu jarayon ikkala tilda mustaqil bo'lmagan, bivosita morfologik-sintaktik tizimga bog'liq birliklarning sintaktik strukturasida ham aks etmasdan qolmadi.

Tilimizdagi nutq birliklarini ma'no xususiyatiga ko'ra ajratish turk tiliga ham xos bo'lib, ular "kelime siniflari" [2] tarzida keltiriladi va ikki guruhga bo'linadi: 1. Anlamli kelimeler 2. Görevli kelimeler [3] (mustaqil va vazifali so'zlar). Binobarin, vazifali so'zlar yordamchi so'zlar hisoblanib, tadqiqot ob'ekti – yuklamalar sintaktik-funksional jihatdan edat (yoki takı, ilgeç) va bağlaç tarkibida o'rganiladi hamda ma'noviy xususiyatlari (benzetme, olumsuzluk, kuvvetlendirme, soru edatlari va h.) funksional (bağlama, çekim, karşılaştırma-denkleştirme, ünlem edatlari va h.), sintaktik (cümle başı, sona gelen, son çekim) fonda tahlil qilinadi.

Ta'kid va kuchaytiruv anglatuvchi yuklamalar M.Ergin va N.Hojiamino'g'liga tegishli ilmiy manbalarda kuvvetlendirme, so'roq va taajjub yuklamalari – soru, inkor yuklamasi – karşılaştırma-denkleştirme edatlari tarkibida o'rganiladi. Masalan, turk tilida -da/-de (ham), dahi/bile/hatta (hatto), -ki (-ki) kuvvetlendirme edatlari, sanki – cümle başı, bağlama edatı, ma'nosiga ko'ra esa benzetme edatı dir; ne...ne funksiyasiga ko'ra karşılaştırma-denkleştirme edatı yoki olumsuzluk bağlacı deyiladi; -ki kuvvetlendirme edatı bo'lish bilan birga, "axir", "-ku" yuklamalari ma'nosida yakınma (shikoyat) edatı hamdir. Shuningdek, ayni birlik turli guruhlar tarkibida o'rganiladi. Masalan, ta'kid va kuchaytiruv, ajratish-chegaralash ma'nosida yuklamalik xususiyati mavjud da (-de), bile, yalnız, ancak, sadece va b. lar edatlar, ya'ni ko'makchilar, ayni vaqtda, bog'lovchilar qatorida sanab o'tiladi yoki kuchaytiruv, ta'kid, inkor ma'nolariga ega -ki, hatto, ne...ne...kabi birliklar bog'lovchi sifatida beriladi va bu bilan yonma-yon qo'shimcha ma'no ifodalashlari qayd qilinadi va h. Turk tilida -ki sabab-natija bildiruvchi jummalarni bog'lovchi vosita sifatida bağlaç tarkibiga kiritilib, ayni paytda izohli gaplar boshida qo'llanilishi, gapga shart, bo'rttirish ma'nolarini ham qo'shishi qayd qilinadi [4]. O'zbek tilidagi xuddi yuklamasi ekvivalenti tpkı kuvvetlendirme (ta'kid va kuchaytiruv) edatlari tarkibiga kiritiladi. Bu ularning polifunksional, polisemantik xarakteri bilan izohlanadi. Yuklamalik xususiyati



mavjud birliklar haqida “Turk tilida edatlar jumlada asl vazifasidan tashqari, ta’kidlash vazifasini ham bajaradi. Bular orasida –da/-de (ham), dahi/bile (hatto) kabi soʻzlar asl kuvvetlendirme edatlaridir. Boshqalari esa jumla ichida turli holatlarda kelib, baʼzan ta’kidlash vazifasini bajaradi” [5], deya qayd etiladi va mazkur birliklarning ikki tomonlama funksiyalanishiga ishora qilinadi.

Qiyoslanayotgan tillarda yuklama vazifali birliklar baʼzan fonetik, maʼnoviy-vazifaviy, sintaktik jihatdan mushtaraklik kasb etsa-da, ayrim hollarda, ular orasida, xuddi shu munosabatlarda keskin farqlanishni kuzatish mumkin. Ayni shaklga ega birliklar (fakat, hatto, yalniz, hem, -mi, -da, -ki) ikkinchi tilda sezilarli tafovutlarda namoyon boʻladi. Masalan, -mi? soʻroq va taajjub yuklamasi turk tilida ham ayni shakliy-vazifaviy xususiyatga ega. Biroq u turk tilida, koʻpincha, soru eki [6] (soʻroq qoʻshimchasi, tarixan soru edati boʻlganligi qayd qilinadi), baʼzan soru edati deb yuritiladi va koʻp hollarda yordamchi soʻzlar tarkibiga kiritilmasdan, faqat qoʻshimcha sifatida talqin qilinadi. -mi oʻzbek tilidagi kabi turli soʻz turkumlari bilan sintaktik munosabatda boʻlishiga koʻra oʻz ekvivalenti bilan umumiy belgilarga ega, yaʼni, soʻroq va taajjub, taʼkid maʼnolarida bir xil sintaktik vaziyatda qoʻllaniladi, shu bilan birga, oʻziga xos sintaktik aloqada namoyon boʻladiki, semantik bogʻlanish munosabatiga koʻra oʻzbek tilidagi ekvivalentidan keskin farq qiladi va

kesimdan oldin keladi, biroq maʼnoviy oʻzgarmaydi (Gitti mi yoksa? – Yoki ketdimi? Sevecek mi bu kadar? – Shunchalik sevadimi? Kendine mi guvenirsin? – Oʻzingga ishonasanmi?). Ushbu shakl otlarga qoʻshilganda, baʼzan oʻzbek tilidagi -mi yuklamasi singari egalik va kelishik qoʻshimchalaridan keyin keladi, biroq bunda sintaktik noproportionallik sodir boʻladi: Ishlerin mi bitti yoksa? – Yoki ishlarining tugadimi? Ablasına mı göstereceksin? – Opasiga koʻrsatasanmi? Baʼzan oʻzbek tilida ham sintaktik noproportionallik kuzatiladi. Bunda –mi yuklamasi, asosan, ot, sifat, olmoshlarni taʼkidlab, jumla boshida keladi. Bu holni stilistik sharhlash mumkin. Masalan: Senmi hali menga qoʻl koʻtaradigan!? Oppoqqina, sarishtaliginami koʻrgan qizing? (soʻzlashuv uslubida); Sochingnimi dengiz dey...Qoshingnimi kamon yoy. (badiiy uslubda)

Bu yuklama qiyoslanayotgan tillarda nafaqat sintaktik oʻrniga koʻra, balki qoʻshimchalarga birikib kelishi jihatdan ham farq qiladi. Yaʼni oʻzbek tilida –mi shaxs-son, egalik qoʻshimchalaridan keyin kelsa, turk tilida bevosita feʼl (yoki boshqa turkumlar)ga qoʻshilib, egalik qoʻshimchasidan keyin, birlik va koʻplikdagi 1- va 2- shaxs-son qoʻshimchalaridan oldin keladi: Evine mi gitti? – Uyiga ketdimi? Burada çalışıyor muyuz? – Bu erda ishlaymizmi?; evin mi – uyingmi, çantam mı - sumkammi, senin mi – senikimi...va h.

Ushbu shakl ilmiy adabiyotlarda kuzatilmagan boʻlsa-da, oʻzbek tilida



an'anaviy so'roq va taajjub ma'nosidan tashqari, so'zlashuv uslubida takrorlingan bo'laklar orasida qo'llanilib, ta'kid va kuchaytiruv (bordimmi bordim, aytdimmi aytdim; oshmisan osh, qizmisan qiz) ma'nosini, uyushiq bo'laklar orasida sodda gaplar tarkibida ayiruv (To'g'rimi-yo'qmi hayot ko'rsatadi.), payt va shart ergash gapli qo'shma gaplar tarkibida ergashtiruv bog'lovchisi (Ustozini ko'rdimi – yana shu voqealar esiga tushadi.) vazifasini bajaradi. Ayni holat, turk tilida ham mavjud bo'lib, -mi shakli "pekiştirme (ta'kid), zaman (payt), koşul" [7] (shart) ma'nolarini anglatadi: Bunu yapmak zor mu zor. İş mi iş ha! (Ishmisan ish!) Güç mü güç ya. (Qiyinmi, qiyin); Onu gördüm mü sinirleniyorum. – Uni ko'rdimmi asabiylashaman. (payt) Çalıştın mı her şeyi başarısın. – Ishlasang hamma narsaga erishasan. (shart)

Ikkala tilda ba'zi yuklamalarga xos umumiylik, ularning ikki tomonlama funksiyalanishida, ya'ni ba'zi birliklar ham yuklama ham bog'lovchi vazifa semasiga egaligida (o'zbek tilida: ham, -da, -u(-yu), faqat, -ki(-kim); turk tilida: -da(-de), ancak, yalnız, sadece (ammo, lekin, biroq, faqat), -ki, bile (dahi) tafovut esa fonetik ekvivalentlik fonida semantik-funksional nomutanosiblik va polifunksionallikda ko'zga tashlanadi. Bunda aksincha, turk tilidagi ayrim birliklarning o'zi bog'lovchi bo'lsa-da, o'zbek tilidagi ekvivalenti kabi yuklamalik xususiyati ham mavjuddir. Bular sanki (go'yo, xuddi), ne... ne, hatta (buning ustiga, bundan tashqari, va,

hamda ma'nolarida bog'lovchi, "bile" ma'nosida yuklama); uchinchi turdagi birliklar yuqorida eslatilganidek, fonetik ekvivalentlik holatida butunlay funksional nomutanosibdirlar. Bular: hem, fakat shakllari bo'lib, ular o'zbek tilidagi muqobillariga va yuqoridagi boshqa fonetik ekvivalent yuklamalarga qarama-qarshi o'laroq, bog'lovchi doirasida yagona funksiyalanishga ega. To'rtinchi turdagilari sof yuklamalardir. Bular – ya, be, -mi, ca/ce, ça/çe, daha, tıpkı, tam, tek. Demak, bog'lovchi kategoriyasi bilan uzviy bog'liqlik va fonetik korrelyativlik jihatdan turk tilidagi mazkur birliklarni 4 guruhga bo'lib o'rganish mumkin.

XULOSA

O'zbek va turk tillari qurilishidagi leksik, sintaktik, fonetik umumiyliklar hamda cematik-funksional tafovutlar bu tillarning bir-biridan mustaqil holda ayni taraqqiyot jarayonini boshdan kechirganligi, arab, fors-tojik tillaridan so'z o'zlashtirish kabi murakkab holatni bosib o'tganligi bilan izohlanadi. Bu holat, ayniqsa, yordamchi so'zlar tarmog'ida aks etib, sof turkiy so'zlar bilan yonma-yon o'zlashma so'zlarning ham paydo bo'lishiga olib keldi. Shu ma'noda, yuklamalar talqinida, sintaktik, grammatik munosabatlarda, ayni birliklarning imloviy qurilishida o'xshash va farqli jihatlar yuzaga keldi.

O'zbek va turk tillarida yuklamalar polisemantik va polifunksionaldir. Ayni bitta yuklama nafaqat ma'noviy, balki fonetik ekvivalentlik doirasida farqli ma'nolarda qo'llanilishi, bir nechta



vazifani bajarishi mumkin, ya'ni yuklama vazifali birliklarda funksional imkoniyat nafaqat bog'lovchi doirasida, boshqa leksik-morfologik shakllarda ham namoyon bo'ladi. Masalan, ham ta'kid yuklamasining ma'noviy ekvivalenti -da(-de) turk tilida biriktiruv, zidlov, takroriy bog'lovchi funksiyasini bajaradi, qo'shimcha, tanbeh, istak-xohish, mensimaslik, maqtanish, taajjub ma'nolarini ifodalaydi. Yoki ajratish va chegaralash yuklamasi yolg'iz turk tilidagi fonetik ekvivalenti bilan qo'shimcha leksik-grammatik imkoniyatlariga ko'ra ot, sifat, ravish o'rnida qo'llanila olishi jihatdan o'xshash bo'lib, yordamchi so'z sifatida butunlay farq qiladi, ya'ni ushbu birlik turk tilida zidlov bog'ovchisi, o'zbek tilida esa yuklamadir. sanki edati o'zbek tilidagi go'yo bog'lovchisiga yaqin turadi, ayni paytda, xuddi aniqlov yuklamasi, kabi ko'makchisi funksiyasini bajaradi; tam shakli aniqlab ko'rsatish ma'nosidagi "xuddi" yuklamasi va "ayni", "aynan", "roppa-rosa", "naq", "qoq", "asl", "haqiqiy" so'zlari, daha o'zbek tilidagi – oq/-yoq ta'kid va kuchaytiruv yuklamasining ekvivalenti bo'lsa-da,

"yana", "yanada", "hali" so'zlari sifat darajasini ifodalovchi –roq qo'shimchasi, bile shakli ajratish-chegaralash ma'nosidagi –gina qo'shimchasi o'rnida kelishi, -ki shubha-gumon ma'nosida o'zbek tilidagi -mikan qo'shimchasini, -da/-de shakli "esa" so'zini, hem ma'lum grammatik shakllar bilan qo'llanilib, ajralmas birikma, modal so'z (Hem de nasil! Hem ne demek! ("shuyam gapmi", "albatta") hosil qilishi bilan xarakterlanadi.

Demak, turk tilida yuklama vazifasini bajaruvchi yordamchi so'zlarning aksariyati polifunksional bo'lib, ma'noviy doirasi kengdir. Ular jumlada sintaktik-morfologik voqelanishiga ko'ra bog'lovchi, ko'makchi, birikma va gapda mustaqil so'z, undov bo'lib kela oladi, fonetik korrelyativlik hosil qiladi, ba'zi birliklar (ya, sanki, tam, -ki, -ca (-ce), -ça (-çe), hem) funksional imkoniyati doirasida bir nechta ma'noviy ekvivalentiga egaligi bilan xarakterlanadi. Bu turk tilining o'ziga xos rivojlanish shart-sharoitlari bilan bog'liq bo'lib, ayni jihat ularning uslubiy xususiyatlarini belgilashda muhimdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A.O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: "O'zbekiston", 1999. – bet 19. (Karimov I.A. Uzbekistan towards a great future. - T.: "Uzbekistan", 1999. - page 19); Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: "Yangi asr avlodi", 2001. – bet 157. (The idea of national independence: basic concepts and principles. –T.: "Yangi asr avlodi", 2001. – page 157.)



2. Parlatır I., Erjilasun B.ve diğer.Türk dili ve kompozisyon. - Ankara.: Ekin Kitabevi, 2005. - s.192. (Parlatır I., Erjilasun B.et al.. Turkish language and composition. - Ankara.: Ekin Kitabevi, 2005. - p.192.)
3. Türkçe Dil Bilgisi. TÖMER. - Ankara.: Gazi Üniversitesi, 2000. -s.186. (Turkish Grammar. TÖMER. Ankara.: Gazi University, 2000. -p.186.); ÖSS Türkçe. - İzmir.: FEM yayınları, 2001. -s. 119. (ÖSS Turkish. - İzmir.: FEM Publications, 2001. -p. 119.)
4. Hacıeminoğlu N. Türk Dilinde Edatlar. - İstanbul.: Milli Eğitim Basım Evi, 1984. - s. 218. (Hacıeminoğlu N. Prepositions in Turkish Language. - İstanbul: National Education Printing House, 1984. - p. 218.)
5. Hacıeminoğlu N. Türk Dilinde Edatlar. - İstanbul.: Milli Eğitim Basım Evi, 1984. - s. 112. (Hacıeminoğlu N. Prepositions in Turkish Language. - İstanbul: National Education Printing House, 1984. - p. 112.)
6. Ergin M. Türk Dil Bilgisi. - İstanbul.: Bayrak, 19.baskı,1992. - s. 350-351. (Ergin M. Turkish Grammar. - İstanbul.: Bayrak, 19th edition, 1992. - pp. 350-351.)
7. Serebrennikov B.A., Gadjeva N.Z. Sravnitelno-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazikov. - M.: "Nauka", 1986. - s. 251. (Serebrennikov B.A., Gadzhieva N.Z. Comparative-historical grammar of Turkic languages. - M.: "Nauka", 1986. - p. 251.); Shcherbak A.M. Ocherki po sravnitelnoy morfologii tyurkskix yazikov. -L.: "Nauka", 1987. - s. 95. (Shcherbak A.M. Essays on comparative morphology of Turkic languages. - L.: "Nauka", 1987. - p. 95.)